

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:7 (67172)  
2018-yil 12-fevral

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

## 14-FEVRAL – ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TAVALLUD TOPGAN KUN



*Kezib ot ustina olamni hayron  
aylagan Bobur,  
Yurak devonida borliqni bo'ston  
aylagan Bobur.*

*Asov yo'lbars kabi yo'lboshchilikdan  
tolmagan ul zot,  
Chiqib o'zbekni olam ahliga zox  
aylagan Bobur.*

*Zamonlar ga'ridan Axtanquliga  
bir nido kelgay,  
Buyuk millatni nomin elga doston  
aylagan Bobur.*



## ALISHER NAVOIY BEKATIDA Navoiyxonlik aksiyasi

4-bet



### G'AZALXON O'QUVCHIGA «SPARK»

Navoiylik tengdoshingiz Ibrohim G'afforov viloyatda o'tkazilgan g'azalxonlik tanlovida 1-o'rinni egalladi. Va viloyat hokimi tomonidan «Spark» rusumli avtomashina bilan taqdirlandi. Karmana tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisiga berilgan sovg'a uning tug'ilgan kuniga ham ajoyib tuhfa bo'ldi.

**Tole yo'qi jonimg'a  
balolig' bo'ldi,  
Ne ishniki ayladim,  
xatolig' bo'ldi.**

**Tong  
yulduzi**

# 14-FEVRAL — ...

**Bugun farzandlarimizning sport,  
ta'lim va san'at sohalarida  
erishayotgan muvaffaqiyatlari  
ko'nglimizni tog'dek ko'tarmoqda.  
Ammo guruch kurmaksiz bo'lmaydi,  
deganlariday, ayrim yoshlarimizning  
14-fevral sanasini sevishganlar kuni  
sifatida nishonlashi jamiyatimizdagi  
og'riqli nuqtalardan biridir.**

Milliy mentalitetimiz, urf-odatlarimizga zid bo'lgan bu kabi «ommaviy madaniyat»ning qora illatlari G'arbdan «demokratiya» niqobi ostida turli behayo kinofilmlar, kliplar, hattoki kompyuter o'yinlari orqali kirib kelmoqda. Televideniye va internet esa qaysidir ma'noda bu «xayrli ish»larga «beminnat» xizmat qilmoqda.

Biz o'tmishi buyuk millatimiz. Ajdodlarimizning har biri umumbashariy insonlardir. Keling, shu kunda tavallud topgan o'zimizning g'urur-iftixorimiz, millatimiz faxri

bo'lgan Bobur hayoti va ijodiga bir nazar tashlasak.

Yirik davlat arbobi, Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir va olim Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Farg'ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo oilasida tavallud topdi.

Adabiyot, nafis san'at, tabiat go'zalligiga yoshligidan mehr qo'ygan Zahiriddin bu ilmlarni otasi saroyida yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Bobur «harb ilmi»ga bag'ishlab kitob yozgan

dunyodagi yagona shohdir.

U dunyo sharqshunos olimlari tomonidan eng ko'p o'rganilgan shaxs.

Bobur «Xatti Boburiy» deb nomlangan yozuv turini kashf etgan.

U o'z askarlari bilan Hindikush tog'idan qor kechib o'tgan Iskandar Zulqarnayn, Amir Temurdan keyingi eng jasur sarkarda.

Bobur buyuk shoir Alisher Navoiy bilan xat orqali muloqotda bo'lgan.

Bobur ijodining gultojis bo'lmish «Boburnoma» o'zbek tilidagi ilk memuar

asar hisoblanadi. Bobur inson sifatida ham sultonlig-u shoirlikda ham dunyo tan bergan nodir shaxs edi. Buyuk hind si-

yosatchisi Javoharlar' Neru o'zining «Hindistonning kashf etilishi» kitobida «Bobur dilbar shaxs edi. Uyg'oni-sh davrining ajoyib sultoni, kuchli, tadbirkor kishi bo'lib, san'atni, adabiyotni, go'zallikni sevardi», deya yozib qoldirgan. Mashhur ingliz tarixchisi Eduard Xolden esa «Bobur fe'li-sajiyasiga ko'ra Sezarga qaraganda sevishta arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan», deya bobomizga yuksak baho beradi.

**Aziz o'quvchi, bir o'ylab ko'ring-chi, bizga o'z vaqtida ko'hna Rimda taqiqlangan, zamirida hayosizlikni targ'ib etuvchi «Avliyo Valentin kuni» kerakmi yoki dunyo tan olgan buyuk bobomiz, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud kunimi? Tanlovni esa o'zingizga qoldiramiz.**

Jamoliddin ABDULLAYEV

**Milliy matbuot markazida Prezidentimizning 2018-yil 25-yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Anjumanda Xalq ta'limi vaziri Ulug'bek Inoyatov ta'lim-tarbiya tizimidagi o'zgarishlar, 11 yillik majburiy umumiy o'rta ta'lim tizimi haqida fikr bildirdi.**

## YAGONA MAKTAB FORMASI

### sinovdan o'tkazilyapti

Yagona maktab formasi! Bu, eng avvalo, ustoz-u ota-onalarning, qolaversa, o'quvchilarning ko'p yillik orzusi. Anjumanda o'quvchilar orasida ijtimoiy tabaqalashuvning oldini olish, ota-onalarning talab va istaklaridan kelib chiqib, yagona maktab formasi joriy etilayotgani qayd etildi. Bugungi kunga qadar mutaxassislar tomonidan 30 dan ortiq maktab formalari tavsiya etildi. Ulardan 4 tasi tanlab olindi. Ayni paytda maktab formalari Sirdaryo viloyati, Sardoba tumanidagi 4- hamda Toshkent shahridagi 91-umumta'lim maktabi o'quvchilari o'rtasida sinovdan o'tkazilmoqda.

Biz Sardoba tumanidagi 4-umumta'lim maktabi direktori Alimbek Qo'shmurodov bilan telefon orqali bog'landik va jarayon bilan qiziqdik:

— 1-sinf o'quvchilarimiz uchun alohida, 4-sinf va albatta, yuqori sinf o'quvchilarimiz uchun alohida maktab formalari tayyorlanyapti. O'quvchilarimiz bularni kiyganlaridan so'ng, maxsus kartochka tarqatilib, bu formalarda o'zlarini qanday his etayotganliklari, chidamliligi, qulayligi xususida test orqali o'z taklif-mulo-



hazalarini yozib borishadi.

Shuningdek, anjumanda 10–11-sinflar uchun 12 ta umumta'lim fani bo'yicha o'quv rejaları qaytadan ishlab chiqildi. 10-sinf o'quvchilariga umumta'lim fanlaridan 18 nomdagi darslik 7 tilda tayyorlanib, jami 9053046 nusxada chop etildi va

joylarga yetkazildi.

Bugungi kunda 10-sinf o'quvchilari respublikamiz bo'yicha 470 ta maktab va 1018 ta kasb-hunar kollejida tashkil qilingan o'quv-ishlab chiqarish majmualarida 50 dan ortiq kasblarni o'rganishmoqda. Bundan tashqari, 11-sinfda «Tadbirkorlik asoslari» fani

ham o'qitiladi. 10–11-sinf o'quvchilari haftasiga bir kun olti soatdan kasbiy ta'lim oladi. Bitiruvchilarga o'rta ma'lumot to'g'risida attestat bilan birga kasb malakasi bo'yicha davlat namunasidagi diplom ham beriladi.

Shu bilan birga, o'quvchilarni kasblarga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida 1-sinfdan boshlab kasbga yo'naltirish ishlari olib boriladi. 8–9-sinflarda esa kasbga yo'naltirish alohida fan sifatida o'qitiladi.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga qaratilgan «Yo'l xaritasi» ishlab chiqildi. Unga ko'ra, 11-sinf o'quvchilari uchun 20 nomda 9,7 million nusxa darsliklar tayyorlandi. Maktablardagi o'quv-ishlab chiqarish majmualarining 489 ta sinfi 18 yo'nalishdagi zarur jihozlar bilan ta'minlanishi ma'lum qilindi.

Anjumanda, shuningdek, o'qituvchi huquqlarini himoya qilish, uning obro'sini oshirish, moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilar o'z sohasiga tegishli bo'lmagan ishlarga jalb etilmasligi alohida ta'kidlab o'tildi.

O'z muxbirimiz

Navoiy viloyati,

Karmana tumanidagi 14-umumta'lim maktabining 1-«V» sinf o'quvchilari ishtirokida «Oz-oz o'rganib, dono bo'lur» deb nomlangan adabiy-badiiy kecha bo'lib o'tdi.

# NAVOIYXONLIK BOBURXONLIKKA ULANIB KETDI



Tadbir qatnashchilari buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning 577 yilligi munosabati bilan shoir ijodidan namunalar o'qidilar, g'azallariga kuy bastalangan qo'shiqlar ijro

etdilar, hikmatlaridan aytib berdilar. Ayniqsa, Sardor Qomatov, Mashhura Shomurodova, Behruz Salimov singari o'quvchilar tadbirda faol qatnashib, faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi.

Badiiy kecha yana bir mutafakkir shoirimiz Mirzo Bobur tavalludi munosabati bilan Boburxonlikka ulanib ketdi. O'quvchilar Bobur g'azallari va hikmatlaridan namunalarini yoddan aytib berdi.

Bunday tadbirlar buyuk shoirlar ijodini chuqur o'rganishda yuksak ahamiyatga ega.

Nigora JO'RAYEVA

Yaxshi kishi ko'rmag'ay yomonlig' hargiz...

## Noyob iqtidor egalari MUHAMMADALI «GINNESNING REKORDLAR KITOBIDAGI»GA KIRMOQCHI

Turon zamini ulug' allomalarga beshik bo'lgan yurt. Bu muqaddas zamindan al-Beruniy, al-Xorazmiy, ibn Sino, al-Farg'oni, Mirzo Ulug'bek kabi dunyo ilm-fan tamadduniga munosib hissa qo'shgan buyuk allomalar yetishib chiqqan. Quvonarlisi, bugun ham jonajon yurtimizda ana shunday ulug' ajdodlarga munosib vorislar unib, o'sib, kamol topmoqda.



Navoiy shahridagi 14-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi Muhammadali Toliboyev o'zining noyob iqtidori bilan tengdoshlari orasida alohida ajralib turadi. Gap shundaki, yosh o'quvchi har qanday sonlar ustida arifmetik amallarni bir zumda

bajara oladi. Buning uchun unga hech qanday qog'oz, qalam yo kalkulyatorning keragi yo'q. U 2017-yil «Zo'r-TV» telekanali orqali efirga uzatilgan «Indigo» ko'rsatuvi orqali 2 xonali sonlarni 3-4 xonali sonlarga ko'paytirish bo'yicha o'z iqtidorini namoyish etib, tanlovning final bosqichida 1-o'rinni egalladi.

Kichkina ijodidan arifmetik amallarni bajarishga qiziqaman. Adashmasam, tez hisoblash qobiliyatimni boshlang'ich sinfni yakunlagan paytimda payqaganman. Avvaliga, ikki xonali sonlarni tez ko'paytirishni o'rgandim. Keyinroq esa raqamlarning murakkabligi oshishi bilan tezkorligim ham rivojlanib bordi, — deydi yosh iqtidor egasi. — Hozirda istalgan sonlarni qiyinchiliksiz bir-biriga ko'paytirish o'rganib olaman.

Ma'lumki, har qanday iste'dod, eng avvalo, oiladagi sog'lom muhit tufayli yuzaga chiqadi. Ota-ona e'tibori, ularning g'amxo'rliqi bois, farzand katta yutuqlarga erishadi. Qarangi, Muhammadalining bu borada omadi chogpan. Boisi, u ulg'ayayotgan oilada o'g'il-qizlarning ilm olishiga, bo'sh vaqtdan unumli foydalanishga alohida e'tibor beriladi. Ayniqsa, oila boshlig'i Qodirjon aka Oq-botayev dilbandlarining kamoli uchun tinib-tinchimaydi.

Farzand — kelajak sarmoyasi. Shuning uchun ham oilamizda o'g'il-qizlarning bilim olishi, o'z iqtidorini namoyon etishi uchun barcha sharoit muhayyo qilingan, — deydi Qodirjon aka. — Bolalarimga televizorni kam ko'rish kerakligini, bu esa sog'lik uchun foydali ekanini aytaman. Uning o'rniga kitob o'qish, sport bilan shug'ullanish lozimligini uqtiraman.

Muhammadalining aytishicha, bu qobiliyatni ham rivojlantirish lozim ekan. Agar orangizda u kabi noyob iqtidor egasi bo'lishni maqsad qilgan o'quvchilar bo'lsa, buning uchun tinimsiz mehnat, izlanish, eng muhimi, matematika faniga chuqur mehr qo'yishni maslahat beramiz.

Yosh matematik kelgusida «Ginnesning rekordlar kitobi»ga kirishni maqsad qilgan.

Hozir aynan shu rekordni yangilash uchun doimiy mashqlarni olib boryapman. Nasib qilsa, matematik amallarni miyada tezkor yechish bo'yicha jahon rekordini o'rnatib, al-Xorazmiy bobomning munosib vorisi bo'laman, — deydi Muhammadali.

Sa'dullo TURSINOV

## NURLI SIYMO

Sahnada mumtoz kuy sadolari ostida Zahiriddin Muhammad Bobur bobomizning nurli siymosi g'avdalandi:

— Charxning men ko'rmagan jabr-u jafosi qoldimu?!

Xasta ko'nglum chekmagan dard-u balosi qoldimu?!

Ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabimizda o'tkazilgan mazkur tadbir shu tariqa boshlandi. Ustozimiz Baxtigul Pardayeva tomonidan tashkillashtirilgan kechada ishtirok etar ekanman, ulug' bobomiz zamoniga tushib, qolgandek bo'ldim. Navbat menga yetganida, hayajon bilan bobomizning «Topmadim» asarini o'qiy boshladim...

Jonimdin o'zga yori-vafodor topmadim, Ko'nglimdin o'zga marhami asror topmadim...

So'ng, Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» asaridan sahna ko'rinishini namoyish etdik.

Shunda Qutlug' Nigorxonim va Xonzodabegim kabi ayollarning muomala madaniyatlari meni qattiq ta'sirlantirdi.

Aziz tengdoshim, mana ularning andisha va odob bilan qilgan murojaatlariga bir e'tibor bering:

«Qutlug' Nigorxonim: — Hazratim, bergan o'gitingizni bebaho gavhar o'rni qabul qilmiz. Ijzat bersangiz, bitta o'tinchim bor...».

Shundan so'ng, 8-«B» sinf qizlari tomonidan Bobur yurtining mashhur Andijon polkasi namoyish etildi. Tadbir so'ngida bobolarimiz hayoti va ijodi bizni tarbiyalab, komillikka yetaklashini angladim.

Aziza AKTAMOVA,

Qarshi davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining 9-«Y» sinf o'quvchisi

## G'AZALXONLIK KECHASI

Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 73-umumta'lim maktabida ulug' bobokalonlarimiz Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi munosabati bilan buyuk ajdodlarimizning hayot yo'li hamda ijodiy faoliyatlarini chuqur o'rganish maqsadida g'azalxonlik kechasi o'tkazildi.

Jumladan, dunyoni hayratga solgan yirik davlat va madaniyat arbobi Boburning 535 yillik yubileyi munosabati bilan o'quvchilardan Zebo Hamroyeva «Bobur mohir sarkarda va donishmand tarixchi», Sevinch Yusupova «Bobur she'riyati haqida», adabiyot to'garagi rahbari Dilfuza Turdiyeva «Zakovatli olim va tarjimon» mavzularida ma'ruza qildilar. So'zga chiqqanlar shoirning hayoti murakkab va ziddiyatli, o'spirinlikdan to umrining oxirigacha jang-u jadallar, zafar va mag'lubiyat bilan kechganligini tadbir ishtirokchilariga so'zlab berdilar.

O'quv dargohida faoliyat yuritayotgan «Navo» ansambli a'zolari ijrosida ulug' bobomiz g'azallari bilan qo'shiqlar yangrab, yig'ilganlarga chinakam bayramona kayfiyat ulashildi.

Shu kuni kitob yarmarkasi ham tashkil etilib, unda ota-onalar, mehnat faxriylari, pedagog va o'quvchilar tomonidan turli mazmundagi kitoblar xarid qilindi. Shuningdek, davra suhbatlari, adabiy-ijodiy o'yin hamda viktorinalar ham tashkil etildi.

Abdulla SAIDOV, Jizzax viloyati

Kim yor anga ilm,  
tolibi ilm kerak...

Tong  
yulduzi

## ALISHER NAVOIY BEKATIDA Navoiyxonlik aksiyasi



**Toshkent metropolitenining Alisher Navoiy bekatida ajoyib aksiya o'tkazildi. Qanday qilib, deya ajablanayotgan bo'lsangiz, Xalq ta'limi vazirligi, Respublika bolalar kutubxonasi va Toshkent metropoliteni boshqarmasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirdan tayyorlagan reportajimiz bilan tanishing.**

Aksiya davomida yo'lovchi yoshlardan Navoiy bobomizning ijodiy faoliyatiga oid savollar, g'azallardan namunalar aytib berishlarini so'rab murojaat qilindi. G'azal mulkingning sultoni ijodiga befarq bo'lmagan g'olib o'quvchilar metropolitenidan foydalanish uchun bir martalik jeton va «Bolalar adabiyoti» jurnali bilan taqdirlandilar.

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 231-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi Fotima Nabyeva va Ahmadjon Zabixulloh esa Guli va Navoiy obrazida g'oliblarga sovg'alarni topshirib turishdi.

Respublika bolalar kutubxonasi tomonidan bir kun davomida tashkillashtirilgan tadbirda faol ishtirok etgan Zabixulloh

hayajon va taassurotlarini yashira olmadi:

– Mana bir necha kunki, ta'lim maskanimizda va yurtimizda buyuk bobomiz tavalludiga oid turli tadbirlar bo'lib o'tmoqda. Lekin bugungi aksiya barcha tengdoshlarimga manzur bo'ldi deb o'ylayman. Aksiya doirasida ularning ulug' mutafakkirimiz ijodini qanchalik o'rganayotganlari ma'lum bo'ldi.

Ha, guvohi bo'lganingizday, mazkur tadbir juda maroqli va turli muzokaralarga boy bo'ldi. Siz-chi, so'z mulkingning sultoni ijodiga oid qancha g'azallarni yoddan bilasiz?! Zero, bu savolga har birimiz zukkolik bilan javob berishimiz ajdodlarimiz oldidagi qarzimizdir.

## BUYUKLARNING IZDOSHLARIMIZ

**Aziz bolajonlar! Sevimli va jonajon maktabingiz haqida so'rasak, har biringiz ta'lim maskaningizdagi o'ziga xos an'analar, sizning chuqur bilim olishingiz uchun qilinayotgan xayrli ishlar haqida to'lib-toshib so'zlaysiz. Siz kabi o'quv dargohida o'tkazilgan ajoyib bayramlar-u qiziqarli tadbirlar bilan bizni tanishtirishga oshiqqan tengdoshlaringiz talaygina. Ana shunday ilimga chanqoq o'quvchilar poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 288-umumta'lim maktabida ham tahsil olishadi.**

Maskanda tashkillashtirilgan tadbirga tashrif buyurib, ular bilan yaqindan do'stlashib oldim. 9-«V» sinf o'quvchisi Umid Muhammadaminovni ustozlar «Bu bizning san'atkor bolamiz», deya tanishtirishdi. Ijodkor qiz Laylo Mamatqulova esa bir necha yillardan buyon ona tili fani bo'yicha «Bilimlar bellashuvi»da muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda. Maktab rahbari Nodira Dadaqo'ziyeva va o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Gulnora Usmonova ham hamisha o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashga tayyor. Ishonmasangiz, har oy maktabda o'tkaziladigan ochiq sayyor muloqotga bir keling.

O'qituvchilar ham bu borada o'quvchilardan sira qolishmaydi. Ayniqsa, tarix fani o'qituvchisi Alesya Usmonova, Xalq ta'limi a'lochisi Gulnoza Nurmatova va kimyo fani mo'jizalari bilan o'quvchilarni hayrat-

lantirayotgan Dilfuza Turdiyevaning darslarini bolajonlar juda yaxshi ko'rishadi.

Yaqinda Birinchi Prezidentimizning 80 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirdan so'ng tengdoshlaringiz Islom boboning o'g'itlariga rioya qil-



gan holda o'zlariga shior tanlashibdi: **AQLLI VA DONO BO'LIB, BUYUK KE LAJAK QURISH.**

2-«E» sinf o'quvchilari esa o'qituvchilari Lyashenko Lyubov Nikolayevna boshchiligida Navoiy bobomizning hayot va ijodiga bag'ishlangan tadbir tashkil etishibdi. Ajoyib



sahna ko'rinishida Husayn Boyqaro obrazini Dilshod Nig'monov ijro etdi. Navoiy timsolida sahnaga chiqqan Ten Mark va Alibek Esonovga zar to'n-u sallalar juda yarashibdi. Voqeaga ko'ra, vazir rolini qoyillatgan Sulton Sultonov, Abdurahmon va Muhammad Abduvorisovlar podshohga shahardagi bozorda Navoiy bir gap tarqatayotganini yetkazishadi. Ma'lum bo'lishicha, shoir otasidan meros qolgan qo'ylarini bozorga chiqarib, «Pulini olampanohning vafotidan so'ng berursiz», deb ulashayotgan

emish. G'azablangan Boyqaro Navoiyni chaqirtiribdi. Shunda buyuk mutafakkir: «Men qo'ylarni kambag'allarga tarqatib berdim. Ular qo'yning pulini berolmasdan, kecha-kunduz sizning umringiz uzoq bo'lishini tilab duo qilishadi», debdi. Bobomizning donoligi-yu saxovatpeshaligiga tan bergan tomoshabin o'quvchilar buyuk zotlarga munosib bo'lmoqni maqsad qilishdi. Men esa ezgu maqsadingizga yeting, deya ular bilan xayrlashdim.

**Sahifani Sayyora QODIROVA tayyorladi**

# SERQIRRA IJOD SOHIBI

*My own soul is my most faithful friend.  
My own heart, my truest confidant.*

*Mening eng sodiq do'stim – bu  
mening qalbin. Mening ishonchim o'z  
yuragimdir.*

Bobur

**O'tmishda yashagan aksariyat turkiy shoh, amir, xon va shahzodalar badiiy, ilmiy ijod sohiblari, hech bo'lmasa, ma'naviyat homiylari bo'lishgan.**

Boburiylardan bo'lmish Sulton Doroshukuh ana shunday sohibtalarlardan bo'lgan. Bo'lajak keng qamrovli ijodkor Doroshukuh 1615-yili Hindiston podshosi Shohjahon xonadonida dunyoga keladi. Ona tomondan bobosi tehronlik olim va davlat arbobi G'iyosiddin Osarxon bolaga Sulton Doroshukuh deb nom qo'yadi. Otasi va bobosi Doroshukuhning tarbiyasiga jiddiy e'tibor beradi. U yoshligidanoq arab, fors tillarini puxta o'zlashtiradi, barcha diniy va dunyoviy bilimlarni mukammal egallaydi, «Qodiriy» taxallusi bilan g'azallar yozga boshlaydi. Doroshukuhning har jabhada barkamol bo'lib yetishishida, bir tomondan, o'zining qiziquvchanligi, zahmatkashligi muhim omil bo'lsa, ikkinchi tomondan, zamonasining buyuk shoir-olimlaridan ta'lim olganligidir.

Davlat yumushlari, harbiy ishlarga beparvo qarab, ko'proq badiiy, ilmiy ijod, tarjimonlik bilan shug'ullanib yursa ham sog'lig'i yomonlashgani uchun Mo'ltan, Allohobod hamda Panjob viloyatlari hokimi bo'lgan Doroshukuhni otasi valiahd etib tayinlaydi. Katta o'g'li Avrangzeb va ayirmachi zodagonlar bu hukmga qarshi isyon ko'taradilar. Tengsiz muhorabada isyonchilar g'alaba qozonib, taxtni Avrangzeb egallaydi va 41

yashar Doroshukuh qatl etiladi.

Qisqa umr ko'rgan bo'lsa ham Doroshukuh serzavq shoir, qilqalam xattot, bardoshli adib va mutarjim sifatida o'zidan keyin katta meros qoldirgan. U qadimgi hind tili sanskritdan 51 ta asarni «Upanishadlar» nomi bilan forsiy tilga tarjima qilib, butun dunyoga keng tarqalishiga sabab bo'lgan.

Ma'lumki, Sharqda buyuk Firdavsiyning «Shohnoma»si ko'plab marotaba qayta ko'chirilgan. Hatto Mirzo Boy-sunqur asarning tanqidiy matnini (XV asr) yaratgan. «Shohnoma»ning ana shu matni asosida yaratilgan 5 jildlik mukammal nasriy tabdili Doroshukuh qalamiga mansub. «Shohnoma»ning XVII–XVIII–XIX asrlarda bajarilgan uchta o'zbekcha nasriy nusxasi ham ana shu matnning o'gimlaridir.

Doroshukuh dunyodagi mashhur asarlardan o'nlab nusxalarni nasta'liqda xushnavis qilgan. Jumladan, «Qur'oni Karim»ning u o'hu terisidan yasalgan qog'ozga nasta'liqda ko'chirilgan nusxasi Haydarobod kutubxonasida, «Masnaviy Sulton Valad» Bangolaning Anjumani Osiyo osarxonasida, «Jomiy ruboiylari majmuasi» hamda Hofiz devoni Dehliidagi «Qal'ai surx» muzeyida saqlanadi. Buyuk olim islom tarixi, tasavvufning kubroviya, chishtiya, naqshbandiya singari tariqatlar tarixi haqida ko'plab ilmiy risolalar bitgan. Jumladan, 25 yoshida yozilgan «Safinat-ul-avliyo» kitobida Sharqning 377 buyuk avliyolarining hayoti, o'qish, kasb egallash, kamolotga yetish yo'lidagi mehnat

va rioyatlari haqida qiziqarli ma'lumotlar jamlagan, ular haqidagi xalq hikoyatlari, pirlarning hikmatlaridan namunalarni keltirgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Doroshukuh nozikta' b shoir ham bo'lgan. Uning o'zi tuzgan g'azallar devoni «Devoni Doroshukuh», «Devoni Qodiriy» nomlari bilan bizga qadar mukammal yetib kelgan.

Serqirra ijod sohibi Doroshukuh ustod darajasiga yetgan chehrakusho ham edi. U Sharq tasviriy san'atining peyzaj-tabiat tasviri, muhoraba, suhbat, bahs-u majlislar tasviri, insonlarning shakl-u shamoyili – portret tasviri, miniatyura janrlarida ijod qilgan.

Zamonasining buyuk kishilari Mulla Shoh, Miyon-jularning Doroshukuh chizgan portretlari Mumbot muzeyida saqlanmoqda. Doroshukuh nozikta' b san'atshunos ham bo'lgan. U butun umri davomida Sharq miniatyura san'atining nodir namunalari yig'ib, ulkan albom – «Muraqqa» tuzgan va uni xotini No-dirabegimga taqdim etgan. Dunyo san'atshunoslari bu albom qadriini mashhur «Ko'hi nur» olmosi qimmatli bilan tenglashtiradilar.

Demak, serqirra adib Doroshukuhning zahmat-kashligi-yu yuksak insoniy g'oyalarni targ'ib etishi, maqsad yo'lida matonat bilan ijod qilishi barcha davr kishilariga ibrat va namuna bo'laveradi.

Hamidjon HOMIDIY,

filologiya fanlari doktori, professor

## Lesson 7

### BOBUR AND A PIGEON



Mirza Bobur was a bright and attentive and intelegant child. One day Umarshaykh was sitting with his guards and servants in his palace, a pigeon flew in through the open window sounding «oh-oo-or, oh-oo-or».

«What is the pigeon saying?» he asked from his servants. They hadn't been in the war for a long time and missed to fight, that's why they said:

«Oh, dear king! Our weapons and swords want war and blood. The pigeon said that it's time to use our swords».

At that moment Mirza Bobur was sitting without saying a word. Only then he said: «No, dad, the pigeon didn't mean that. They have good news for us. It's inviting us to the festival of melons».

Umarshaykh ordered to catch the bird. They saw a copper ring with a letter around its leg. Then they read it. There was written: «Dear king! Melons are ripe. Please, come and cut the first melon with your own hands».

Umarshaykh surprised at hearing that and asked his son: «How did you manage to understand it?»

«Father you didn't pay attention to this pigeon. Last year this bird informed us about ripe melons. I recognized it immediately seeing a black spot on its right wing and I supposed that news». Surprising young Mirza's intelligence and punctuality the king emphasized: «Always use your knowledge and attention, not swords, let everybody know to go to the festival of melons».

Azizjon JUMAYEV,

the pupil of school №8 Qiziltepa district, Navoiy region

### HOW MANY WORDS CAN YOU FIND?

Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV



B	A	N	A	N	A
E	X	E	N	E	B
N	E	S	T	C	R
W	R	Q	E	K	I
U	I	P	L	L	C
O	Y	Y	Z	A	O
L	W	Y	L	C	T
S	B	A	L	L	M



Mohiniso BOBOYEVA,

the pupil of school № 31 in Bekobod district, Tashkent region

### TEST FOR BOBUR'S LIFE



1. The meaning of the name Bobur.

a) A lion; b) A tiger; c) A king.

2. The names of Bobur's parents.

A) Amir Taragay and Teguna; b) Umarshaykh and Qutlug Nigar khanum; c) Umarshaykh and Nigar khanum.

3. When does Zahiriddin Muhammad Babur born?

a) He was born February 14, 1483, in Andijan; b) He was born February 14, 1484, in Andijan;

c) He was born February 14, 1485, in Andijan.

4. When did he become the prince of Andijan?

a) In 1504; b) in 1505; c) in 1506.

5. When did he write in his well-known work «Boburnama»?

a) Between the 16th and 17th centuries; b) The end of the 14th to the second half of the 15th century; c) The end of the 15th to the first half of the 16th centuries.

6. When did Bobur died?

A) he died in 1531; b) he died in 1432; c) he died in 1530.

Sarvinoz NAZAROVA,

the pupil of lyceum under Uzbek State World Languages University

### READ THE INFORMATION ABOUT BOBUR'S LIFE AND MARK TRUE OR FALSE

- When he was 12 years old his father died – True
- Zahiriddin took his education from Herat –
- In 1505 he occupied Andijan as well –
- Bobur died in 1504 in the city of Agra –
- Rubais written in the Forsian language –
- When Bobur left his hometown and settled in Andijan –

### CHILDREN, NOW WE READ INTERESTING INFORMATION ABOUT BOBUR'S NOVELS

- The Boburnama is about the history of people of Khuroson, India and Iran.
- In the Boburnama there is a lot of information about social, economic matters, political, geography positions, people and tribes also their life.
- In the Turkic languages were written Bobur's novels.
- Also his novels such as «Bobur's writing» («Xatti Boburiy»), «The matters of War» («Harb ishi»), «About aruz» («Aruz haqida»),
- The autobiography work of Bobur's life is the Tuzuk-i Bobur.
- Boburnama translated into English by A.S. Beveridge, in New Delhi reprint in 1979.

Your teacher Ma'mura G'ULOMOVA

**Bori elga yaxshilik qilg'ilki,  
mundin yaxshi yo'q...**

## HAZRATI BOBUR

Uch asr saltanat zavol bilmagan,  
Olis ayriliqda yurtin o'ylagan,  
Shoh bo'lsa ham Vatan ishqin kuylagan,  
Tasanno aytamiz, Hazrati Bobur.

Temuriylar sulolasin qudrati,  
Ijodida ko'pdir hayot hikmati,  
Shoh va shoirlarning tengsiz san'ati,  
Tasanno aytamiz, Hazrati Bobur.

Buyuk tarix bo'lib yashaydi Bobur,  
Dillarni ilitib yashashga qodir,  
Siz mening bobomsiz mard va bahodir,  
Tasanno aytamiz, Hazrati Bobur.

**Davron TIRKASHEV,**  
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahridagi  
1-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-  
internatining 8-sinf o'quvchisi

## MEHRIN TUYIB YASHAYMIZ

Ona tilim she'rlarida,  
Marjon qilgan Navoiy.  
So'z sehrini yuraklarda,  
Darmon bilgan Navoiy.

Dunyoga mashhur qilgan,  
Butun o'zbek tilini.  
So'z ila qalqon bilgan,  
Jondek sevgan elini.

Biz doim g'ururlanib,  
Mehrin tuyib yashaymiz.  
Dunyolarga maqtanib,  
Dadil qadam tashlaymiz.



**Kamronbek ABDULLAYEV,**  
Yunusobod tumanidagi 288-umumta'lim  
maktabining 2-sinf o'quvchisi

## BIZ BUYUKLAR AVLODIMIZ

Biz buyuklar avlodimiz,  
Navoiy, Boburlar izdoshi.  
Ularning ruhlari bizga madadkor,  
Elga munosib bo'lmog'im darkor.

Boburni e'zozlar ahli Hindiston,  
Amir Temur yurgan maskan Guliston.  
Alisher Navoiy yashagan Hirot,  
Bizlarga baxsh etar ezgulik qanot.

**Gulchiroy SULTONBEKOVA,**  
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi  
48-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf  
o'quvchisi

# QUYOSH PURKAGAN OLOV



**Bolalikning qirlari baland, tog'lari  
purviqor, bog'lari beqiyosdir. Bolalarning  
beg'ubor ko'zlarida olam o'zining betakror  
sir-sinoatlari bilan jilvalanadi. Bolalar  
hech qachon yolg'on so'zlamaydi. Ular  
ko'rganlarini bus-butun ko'rsatishadi.  
Shuning uchun ham ularga yolg'on so'zlab  
bo'lmaydi. Xalqda «Bolalar shoiri bo'lish  
uchun ijodkor bolaqalb bo'lish kerak»,  
degan maqol bor.**

Mana sizga yuqorida aytilgan so'zla-  
rimning isboti. Shoir o'zining «Kunlar tafti  
– Ajdarboy» nomli she'ri bilan tinimsiz olov  
purkayotgan quyoshni ajdarga qiyoslaydi.  
Sanjarboy bilan chigirtkaning do'stlashi-  
shi ularning Ajdarboy bilan kurashishga  
shaylanib, olamni yondirayotgan quyosh  
bilan ro'baro' bo'lishga tayyor ekanligi  
go'zal ifoda etilgan. Bordi-yu kunlarning  
tafti pasaysa, Ajdarni kechirishlari mum-  
kinligi ishonchli chiqqan. Rauf Subhonning  
kattalarni fikr-mulohazaga chorlaydigan  
she'rlarini ko'p o'qiganmiz. Ammo uning  
bolalarga bag'ishlab yozgan she'rlari  
ham zalvorliligiga guvoh bo'ldik. O'quv-  
chini chuqur o'ylashga cho'mdirib mulohaza  
qilishga undaydigan satrlar muallifi Rauf  
bobongiz 60 yoshni qarshiladi. Biz bu-  
gun shoirming bolajonlarga bag'ishlab  
yozgan she'rlaridan o'quvchilarni ham  
bahramand qilishga oshiqdik.

**AXTAMQULI**

**Rauf SUBHON**

## YURT TINCHI

Sabzi ekdim bog'imga,  
Quyov sanab yesin, deb.  
Donni ko'klam chog'inda,  
Ekdim qushlar kelsin, deb.

Jonivorlar kezib bog',  
Bizni o'yga toldirar.  
Ayniqsa, qarq'a qag'-qag',  
Yong'oq ko'mib qoldirar.

Qaldirg'ochlar mehrimni,  
Bilib qoldi har yili.  
Kim chiqarmas qahrini,  
Yurti tinch, ravon yo'li.



## KITOB OLIB KELSANGIZ

Kichkintoyman, kichkina,  
Menda yo'qdir kek, gina.  
Bizni bilmay ko'p ona:  
«Tarbiyasiz», der yana.

Tarbiyamiz buzilmas,  
Ko'nglimizni bilsangiz.  
«Ma, xo'rozqand!» demasdan,  
Kitob olib kelsangiz!..

## «NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

**(Davomi. Boshi  
o'tgan sonlarda)**

Aziz nabiram!  
Bilaman, sen ki-  
tob o'qishni yaxshi  
ko'rasan. Bu kitob-  
xonlik mendan  
adangga, adangdan  
senga yuqqan.



## OTASIGA RAHMAT OLIB KELGAN BOLA

Kitob o'qish yaxshi. Lekin guvillab o'tib borayotgan hayotni ham o'qiy olish kerak. Diqqat qilsang, hayotning o'zi ulkan bir kitob. Sen yaxshi ko'rib o'qiyotgan kitoblar undan ayrim sahifagina, xolos. Bobojon, hayotni qanday qilib o'qish mumkin, deysanmi?

Bir kuni desang avtobusda ketayotgan edim. U bir bekatga borib to'xtadi. Orqasiga jild osgan bir talay bolalar to's-to'polon bilan ulovga chiqishdi. Shu payt pastdan bir bola haydovchiga murojaat qilib qoldi.

– Amaki, pulim yo'g'idi, chiqvosam maylimi?

Boshqa yo'lovchilarni bilmadim-u, ammo bolaning so'ragani menga yoqdi. Mabodo, haydovchi yo'q deb qolsa, yo'l haqini men to'layman, chiqaqolsin, demoqchi ham bo'ldim. Hartugul haydovchi:

– Chiqaqol, – dedi.

Shu payt mendan oldingi o'rindiqda o'tirgan otaxon, «Barakalla, otangga rahmat», deb yo'qdi. Bu olqish bolaga aytildimi, haydovchigami, bilolmay qoldim. Harqalay haydovchining bolajonligidan xursand bo'ldim. Xayol bilan bo'lib, bu voqeani deyarli unutgan edim. Navbatdagi bekatda yana boyagi bolakayning ovozi yangrab qoldi.

– Rahmat, amakijon.

Qarasam, u pastga tushib olibdi. Shu payt oldinda o'tirgan otaxon yana:

– Barakalla, otangga rahmat, – deb yo'qdi.

Shundagina maqtovnig egasi bolakay ekanini anglab yetdim. Qandoq odobli bola ekan. Ba'zi bolalarga o'xshab avtobusda qo'rqa-pisa «quyon» bo'lib ketmadi. Haydovchidan so'rab, bamaylixtor uyiga yetib keldi. Yana tarbiya qilgan otasiga rahmat ham oldi. Bolaning bu chiroyli odobi bitta meni emas, boshqalarning ham ko'nglida bir ilqlik uyg'otgan bo'lsa, ajab emas. Mana senga hayot kitobidan bir dars, bir saboq, nabiram! Ibrat ol, oilamiz sha'niga, «Barakalla, otangga rahmat», degan olqishlar olib kel.

**(Davomi bor)**

Bugungi kunda Marg'ilon shahridagi 1-Bolalar va o'smirlarga ixtisoslashtirilgan sport maktabida sportning futbol, mini-futbol, boks, dzyudo, yengil atletika, voleybol, basketbol, kikkboxing, milliy kurash, stol tennisi, taekvando, sport gimnastikasi, yunon-rum kurashi bo'limlari faoliyat olib bormoqda.

## VATANGA SADOQAT

– 21 nafar murabbiy 1017 nafar o'g'il-qizlarga saboq berishmoqda. O'tgan yili maktab o'quvchilari futbol bo'yicha o'tkazilgan «Futbol g'unchasi» turnirida qatnashib, 1-o'rinni egalladi. «Umid nihollari» musobaqasining Farg'ona viloyat saralash bellashuvlarida o'quvchilarimiz barcha sport turlari bo'yicha muvaffaqiyatli ishtirok etishdi, – deydi sport maktabi direktori, kikkboxing bo'yicha jahon chempioni Shavkat Azizov. Shuningdek, kikkboxingning ISKA yo'nalishida qizlar o'rtasida Turkiyada o'tkazilgan musobaqada Shahnoza Karimova jahon kamari uchun ispaniyalik raqibi Mariya Deleres ustidan g'alabaga erishdi. WUTA yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatida yosh sportchilar Abdulhamid Mahmudov, Murod Dadaboyevlar 3-o'rinni egalladilar. Abdulhamid Mahmudov chempionatning eng yaxshi jangchisi kubogi bilan mukofotlandi.

Muhammadjon MAHMUDOV,  
Marg'ilon shahri

Bizning 5-umumta'lim maktabimiz Andijon viloyatining qo'shni Qirg'iziston Respublikasiga chegaradosh Xo'jaobod tumanida joylashgan bo'lib, chor-atrof baland tog'lar bilan o'ralgan. Tumanimiz tabiati juda go'zal, suvi zilol. Men 35 yildan buyon maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishlayman.

## CHEMPIONLAR SINFIMIZDA

2-sinfim matematika faniga ixtisoslashtirilgan. O'quvchilarining hammasi a'lochi. Ular nafaqat fanlar, balki sportga ham juda qiziqishadi. Bolalar maktabimizdagi ko'plab sport to'garaklarining faol a'zolari.



Men Fazliddin Tursunov va Muhammadaziz Jahongirov haqida to'xtalmoqchiman. Fazliddin 2015-yil kikkboxing bo'yicha viloyat chempionatida, 2017-yil Mustaqilligimizning 25 yilligiga bag'ishlangan tumirda, 2017-yil tumanda bo'lgan musobaqada 1-o'rinni egallagan.

Muhammadaziz esa o'rtog'iga havas qilib, maktabimizda tashkil etilgan «Qo'l jangi» sport to'garagiga a'zo bo'ldi. Tumanda o'tkazilgan qo'l jangi ochiq birinchiligida 1-o'rinni olib, I darajali diplom va esdalik sovg'asi bilan taqdirlandi. Bu o'quvchilarimning orzulari Respublika va jahon arenalarida yurtimiz sharafini munosib himoya qilishdir.

Ustoz sifatida o'quvchilarimga katta musobaqalarda omad va zafarlar tilayman.  
Dilorom AMINJONOVA,  
Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi  
5-umumta'lim maktabi o'qituvchisi,  
Xalq ta'limi a'lochisi



## MAKTABDOSHLAR YUTUG'I

Yosh avlodning barkamol shaxs bo'lib kamol topishida sportning o'rni beqiyos.



Pop tumanidagi 11-DIMIda ham yosh sportsevar bolalarga chuqur bilim berilmoqda. Buning uchun ta'lim maskanida barcha imkoniyatlar yetarli. Sport maydonchasi, futbol, voleybol uchun mo'ljallangan o'yingohlar, sport zali doimo o'quvchilar bilan gavjum.

Kuni kecha o'tkazilgan «Umid nihollari» sport musobaqasining tuman bosqichida maktab-internati o'quvchilari yuqori natijalarga erishdi. Jumladan, shaxmat bo'yicha 1-o'rin 6-«A» sinf o'quvchisi Shohrux Sodirjonovga 2-o'rin 10-«A» sinf o'quvchisi Otabek Karimjonovga nasib etdi. Qo'l to'pi, basketbol o'yinlarida 7-8-sinf o'quvchilari g'olib bo'ldi.

Shuningdek, 9-10-sinf o'quvchilari yengil atletika, futbol va minifutbolda 1-o'rinni egalladi. Yana yengil atletika bo'yicha 6-sinf o'quvchilari o'rtasida Sarvinoz Mavlutaliyeva, Farzona Karimjonova, Ruxshona Yigitaliyeva, Javohir Abdulmutalibovlar yuqori natijalar ko'rsatishdi. – Yosh sportchilarimizdan umidimiz katta, kelajakda bilim maskanimizdan jahon chempionlari chiqishiga ishonamiz, – deydi maktab-internat direktori M. Ahmedova.

Umumjamoa hisobida tuman maktablari o'rtasida eng yuqori o'rinni 11-DIMI jamoasi egallab, faxriy yorliq va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Bu yutuqlarning ortida maktab-internatning jismoniy tarbiya o'qituvchilari Solijon Mirzavaliyev, Farhodjon Fazliddinov va Jasur Dadaboyevlarning samarali mehnatlarini alohida e'tirof etish lozim.

M. ALIMOV

## BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

### «XAMSA» DOSTONLARI QAHRAMONLARI TOPQIRLIK MASHQI

Bo'ya shaklida to'qilgan kataklarda donishmand shoir Mir Alisher Navoiy qalamiga mansub shoh asar «Xamsa» dostonlaridagi qahramonlar nomlari yashiringan. Berilgan harflardan foydalanib, eniga va bo'yiga yo'nalishida joylashgan o'n bitta nomni toping-chil! Ushbu nomlar buyuk ijod sohibining qaysi dostonlariga mansub ekanligini bilasizmi?

Alisher Navoiy «XAMSA»

F	I	R	I	A
L	A	Y	A	I
R	O	S	U	A
M	N	N	R	Y
O	O	A	O	T
X	N	Q	M	U

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

Pazanda qizgal!



## MAZALI RULET

Aziz qizlarjon, tavsiya qilayotgan pishiriqlar-u salatlarimiz dasturxonimiz ko'rki bo'layotganidan mamnunmiz. Bugun sizlarga ajoyib rulet tayyorlashni o'rgatamiz.

### Kerakli masalliq:

3-4 ta tuxum, 200 gramm shakar, 200 gramm un, 1 choy-qoshiqda iste'mol sodasi, 1 stakan sut, krem uchun 250 gr «Iriska» quyultirilgan suti.



xamir hosil bo'lgach, gaz patnisiga pergament qog'oz to'shalib, xamir bir xil qalinlikda quyiladi. Qizdirilgan gaz pechida 15-20 daqiqa davomida pishiriladi.

Yarim tayyor pishirichni sochiq ustiga ehtiyotkorlik bilan to'shang. So'ngra, irisika surtib, tekis joyda rulet holida o'rang va biroz muzlatgichga qo'ying.

Sizga yoqimli ishtah!

NARGIZA tayyorladi

**Tayyorlanishi:** tuxum sarig'i oqi bilan birgalikda ko'pirtiriladi. Jarayonda oz-ozdan shakar solinadi. Alohida idishdagi sutga iste'mol sodasi, un solib, bir xil massaga kelgunga qadar aralashtiriladi va tuxumli massa quyiladi. Suyuqroq

## TEST

**1** Bobur «Xatti Boburiy»ni yaratganida, necha yoshda edi?

- A) 20 yoshda;
- B) 12 yoshda;
- D) 15 yoshda;
- E) 30 yoshda.

**2** Boburning topilmay qolgan asari?

- A) Boburnoma;
- B) Hind devoni;
- D) Qobul devoni;
- E) «Volidiya».

**3** Boburning 1532–1525-yillarda yaratilgan «Mubayyin al-zakot» asari nima haqida yozilgan?

- A) ishq haqida;
- B) soliq ishlar haqida;
- D) Vatani to'g'risida;
- E) yor to'g'risida.

Gulmira SODIQOVA,

Toshkent bank kolleji o'qituvchisi



## OLAM ZIYNATI QISH (Badia)

Mana, kumush qishning so'nggi oyi ham o'tib bormoqda. Bu fasl menga bolaligimni, sho'x-shodon damlarimni eslatadi. O'sha vaqtlarni ko'p sog'inaman. Bu yil esa kumush qor barchani sog'intirdi. Axir u qishning ziynati, bolalar quvonchi-da. Qani endi qishning qulog'iga asta shivirlab, «Bolalarni qorb'ron o'ynash-u, qorbobo yasab quvnashdan bebahra qilma, sepingni yoy», desam.


Bu faslning qahraton sovug'ini esa o'tkir qilichga o'xshatamiz. Ammo shu sovuq tufayli osmondan yomg'ir, qor yog'adi. Buvijonlarimiz aytganlariday, qor bilan kut-baraka ham yog'iladi. Qor shunday mo'jizakor ne'matki, nogoh uni qo'limizga olib, sinchiklab qarasaq, buyuk naqqosh tomonidan yaratilgan betakror naqshlarni ko'ramiz. Yaratganning o'zi qoni ziynatli qilib yaratgani barchamiz uchun hayratlanarlidir. U maftunkor faslga o'zgacha joziba baxsh etadi. Tarnovdagi sumalak esa takrorlanmas manzarani yanada jonlantiradi.

Olam ziynatli qish bag'rida go'zal tus olishini juda-juda istardim.

Vaziraxon MARDIYEVA,

Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 9-«E» sinf o'quvchisi

## DONOLIK SIRI



Hikoyamiz emanni manzil tutgan ukki haqida. Ukki daraxt shoxiga o'tirib, har kun atrofida bo'layotgan voqealarni kuzatar ekan. Kecha bir qariyaga og'ir yukini ko'tarib yordam berayotgan bolakayni kuzatibdi. Bugun esa onasi bilan janjallashib, dod solayotgan qizaloqqa ko'zi tushibdi. U qanchalar ko'p hodisalarni ko'rgani sayin shunchalar kam so'zlaydigan bo'lib qolibdi.

Ukki kam gapirgani bois ko'p eshitish imkoniga ega bo'ldi. U odamlarning ko'z ko'rib, quloq eshitmagan turli hikoyalarni eshitib, kun o'tkazibdi. Bir ayoldan oldidagi devordan ot kabi sakrab o'tgan fil haqida eshitib, hayratlanibdi. Yana

bir odam esa o'zining hech qachon xatoga yo'l qo'ymaganligini aytilib maqtanibdi. Uning ko'z oldida insonlar vaqt o'tgan sayin qaysi biridir yuksaklikka, ya'ni boshqa birlari tubanlik tomon qadam tashlab boraverardi. Lekin har turli voqea-hodisalar guvohiga aylangan ukki axyiri dono qushga aylanibdi. Uning aqli kun sayin oydinlashib boraveribdi.

Xulosa shuki, har inson ziyrak va aql-farosatli bo'lmog'i kerak. Kamroq so'zlab, ko'proq tinglamollik donolikning ilk sabog'idir.

Ingliz tilidan Muhammadsharif FAYZULLAYEV tarjimasida

8

12-fevral 2018



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TÄHRIR HAY'ATI:** Qahramon QURONBOYEV, Dilshod KENJAYEV, Alisher SA'DULLAYEV, Laziz TANGRIYEV, Murtazo SULTONOV, Feruza JALILOVA, Ashurali JO'RAYEV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir** Axtamqul KARIMOV **Rassom** Feruzbek KAMOL o'g'li **Sahifalovchi-dizayner** Shaxobiddin MAXMADIYEV **Fotomuxbir** Zubayda HAMIDULLAYEVA

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz Adadi - 74013 Buyurtma - V 1070

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti - 18:00 Topshirildi - 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08